

Seysmik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan Qonun mazmun-mohiyati va ahamiyatiga bag'ishlangan davra suhbatini tashkil etildi

FA G'.Mavlonov nomidagi Seysmologiya institutida O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 13-sentyabrda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta'minlash to'g'risida"gi O'RQ-713-sonli Qonunining mazmun-mohiyati va ahamiyatiga bag'ishlangan davra suhbatini o'tkazildi. Unda FA Seysmologiya instituti, Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti yetakchi olimlari, Favqulotda vaziyatlar vazirligi, Qurilish vazirligi, Geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi mutaxassislari ishtirok etdi.



Davra suhbatida seysmik xavf-xatarni (riskni) baholash va zilzilalar yuz berishi ehtimolini aniqlash hamda bino va inshootlarning seysmik mustahkamligi, ularda kuzatuv ishlarini olib borish bo'yicha Qonunda belgilangan talablar, O'zbekiston hududida seysmik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni Qonun doirasida amalga oshirish, shuningdek, Qonunda belgilangan davlat organlarining vakolatlari hamda ularning mazkur Qonun ijrosini ta'minlash borasidagi o'zaro hamkorligi masalalari muhokama qilindi va o'zaro fikr almashildi.



